

ONLAYN DARSLARDA O'QITUVCHI OVOZINING OHANGDORLIGI VA UNING TALABALAR FIKRLASHIGA TA'SIRI

Karriboyeva Lobarxon Fayzulla qizi

Magistrant

karriboyevalobar@gmail.com

+998904309045

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot masofaviy ta'lim tizimida pedagog nutqining akustik va emotsional parametrlari talabalar bilim olish samaradorligiga ta'sirini o'rganadi. Ish doirasida o'qituvchi intonatsiyasi, nutq tempi va emotsional ifodaliligining talabalarda kognitiv jarayonlarni faollashtirishdagi roli zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tahlil etilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi nutqining ifodali bo'lishi talabalarning diqqatini jamlash, o'tilgan mavzuni chuqurroq anglash va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Nutqning bir xil ohangda (monoton) yoki aksincha, jonli jaranglashi talabalarning o'quv motivatsiyasi va fanlarga qiziqishiga bevosita ta'sir qilishi ilmiy asoslandi. Tadqiqot natijalari onlayn darslarni sifatini yaxshilashda pedagogik nutq madaniyatini oshirish va o'qituvchilarning kommunikativ mahoratini rivojlantirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: onlayn ta'lim, o'qituvchi nutqi, ovoz ohangdorligi, intonatsiya, kognitiv jarayonlar, o'quv motivatsiyasi, pedagogik kommunikatsiya.

Annotation. This research examines the impact of the acoustic and emotional parameters of pedagogical speech on the effectiveness of student learning in the distance education system. Within the framework of the work, the role of teacher intonation, speech tempo, and emotional expressiveness in activating cognitive processes in students is analyzed based on modern pedagogical approaches. The analysis shows that the expressiveness of the teacher's speech is of great importance in focusing the students' attention, deepening their understanding of the topic, and developing the ability to draw logical conclusions. It is scientifically based that the monotonous or, conversely, lively sounding of speech directly affects students' learning motivation and interest in subjects. The research results include specific suggestions and recommendations for improving the quality of online lessons, increasing the culture of pedagogical speech, and developing the communicative skills of teachers.

Keywords: online education, teacher speech, voice resonance, intonation, cognitive processes, learning motivation, pedagogical communication.

Аннотация. Данное исследование изучает влияние акустических и эмоциональных параметров речи педагога в системе дистанционного обучения на эффективность усвоения знаний студентами. В рамках работы роль

интонации, темпа речи и эмоциональной выразительности педагога проанализирована на основе современных педагогических подходов к активизации когнитивных процессов у студентов. Анализы показывают, что выразительность речи учителя имеет важное значение для концентрации внимания студентов, более глубокого понимания пройденной темы и развития способности делать логические выводы. Научно обосновано, что монотонное звучание речи, или наоборот, её живое звучание, напрямую влияет на учебную мотивацию и интерес студентов к наукам. Результаты исследования включают конкретные предложения и рекомендации по улучшению качества онлайн-уроков, повышению культуры педагогической речи и развитию коммуникативного мастерства преподавателей.

Ключевые слова: онлайн-обучение, речь учителя, звуковая тональность, интонация, когнитивные процессы, учебная мотивация, педагогическая коммуникация.

К

i

r

i

s

h

S

o

‘

n

g

g

i

y

i

l

l

a

r

d

a

a

x

b

o

r

o

t

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda onlayn darslarda o‘qituvchi bvozinig ohangdorligi va uning talabalar fikrlashiga ta’sirini o‘rganish maqsadida

nazariy tahlil, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini pedagogik muloqot, nutq madaniyati va o'qituvchi nutqining ta'lim samaradorligiga ta'siriga oid mahalliy ilmiy manbalar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida o'qituvchi nutqining ifodaviyligi, intonatsiyasi, ovoz ohangi va pedagogik muloqotdagi o'rni yoritilgan ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Xususan, N.Q. Olimovaning tadqiqotida o'qituvchi nutqining psixologik ta'sir mexanizmlari, izchil fikrlashni shakllantirishdagi o'rni hamda ifodali o'qish orqali emotsional nutqni rivojlantirish masalalari o'rganilgan [6,15]. Ushbu yondashuv o'qituvchi nutqining talabalar fikrlash jarayoniga ta'sirini tahlil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, Norqulova va Primkulovalarning ilmiy ishlarida o'qituvchi nutqining ta'sirchanligi, ovoz, ohang, pauza, diksiya va intonatsiyaning pedagogik jarayondagi ahamiyati yoritilgan [7,16]. Mazkur tadqiqot natijalari asosida nutq texnikasining talabalarning diqqatini jamlash va o'quv materialini qabul qilishdagi ro'li tahlil qilindi. Bundan tashqari, Berdiyorovanning pedagogik texnika va nutq madaniyatiga bag'ishlangan ishida o'qituvchi ovoz balandligi, diksiya va kommunikativ mahoratining auditoriya bilan samarali muloqot o'rnatishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan[8]. Ushbu ilmiy qarashlar onlayn darslarda o'qituvchi ovozining ohangdorligi va uning ta'lim samaradorligiga ta'sirini baholashda qo'llaniladi. Olingan ma'lumotlar pedagogik va psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinib, o'qituvchi nutqining ohangdorligi talabalar diqqatini, idroki, o'quv motivatsiyasi va fikrlash faolligiga ta'siri yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

**1-jadval. Onlayn darslarda o‘qituvchi ovozinining asosiy xususiyatlari
va ularning talabalarning fikrlash faoliyatiga ta’siri.**

Ovozning pedagogik xususiyatlari	Mazmuni	Talabalar fikrlashiga ta’siri	Ta’lim jarayonidagi ahamiyati
Ohangdorlik	Nutqning tabiiy va ravon ohangda bo‘lishi	Diqqatni uzoq vaqt saqlashga yordam beradi	Darslarning samaradorligini oshiradi
Intonatsiya	Muhim fikrlarni ovoz ohangi orqali ajratib ko‘rsatish	Axborotni chuqurroq anglash va eslab qolishni ta’minlaydi	Murakkab mavzularni tushunishni yengillashtiradi
Nutq tempi	Nutqning me’yoriy tezlikda olib borilishi	Axborotni qabul qilish va tahlil qilishni osonlashtiradi	Bilimlarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi
Emotsional ifodalilik	Nutqning hissiy ta’sirchanlikning mavjudligi	O‘quv motivatsiyasini va mustqail fikrlashni kuchaytiradi	Talabalarning darsdagi faolligini oshiradi
Ovoz tembri	Ovozning yoqimli va barqaror eshitisli	E’tiborning susayishini oldini oladi	Pedagogik muloqot sifatini yaxshilaydi
Diksiya va talaffuz	So‘zlarning aniq va ravshan talaffuz qilinishi	Axborotni to‘g‘ri idrok etishga yordam beradi	Muloqot samaradorligini ta’minlaydi
Pauza va mantiqiy urg‘u	Muhim fikrlarni pauza va urg‘u orqali ajratish	Mantiqiy fikrlash va xulosa chiqarishni rivojlantiradi	Asosiy g‘yalarni yaxshiroq o‘zlashtirishga imkon yaratadi

J

a

d

v

a

l **Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, onlayn darslarda o‘qituvchi ovozinining ohangdorligi talabalar fikrlash faolligi va o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, intonatsiyasi boy, emotsional jihatdan ifodali va me’yoriy tempda olib borilgan ma’ruzalar talabalar e’tiborini uzoqroq muddat davomida saqlabga xizmat qilgan [11,14]. Tahlillar davomida monoton va bir kil ohangda olib borilgan darslarda talabalarning diqqat darajasi pasayishi, mavzuni tushuntirish hamda eslab qolish ko‘rsatkichlari esa nisbatan past bo‘lgani kuzatildi. Aksincha, ovoz balandligi va intonatsiyaning mavzu mazmuniga mos ravishda o‘zgarib borishi talabalar tomonidan axborotni qabul qilish samaradorligini oshirgan [9,14]. Shuningdek, o‘qituvchi ovozining emotsional ifodalilik talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish va ularning zimlarni qabul qilish va tahlil qilishga yordam ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan. Ayniqsa, muhim tushunchalar va nazariy qoidalarni ta’kidlashda ohangning maqsadli foydalanish talabalarning mavzuni chuqurroq anglashga yordam bergan [10, 11,12]. Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat shundan iboratki, nutq tempining haddan tashqari tez yoki sekin

a

bo'lishi talabalarning axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutqning me'yoriy tempda va ravon tarzda olib borilishi esa darslarda talabalarning mantiqiy fikrlash, xulosa chiqarish hamda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmalari yuqori darajada namoyon bo'lgan [9,13,14]. Umuman olganda, olingan natijalar onlayn ta'lim jarayonida o'qituvchi ovozining ohangdorligi, intonatsion xilma-xilligi va emotsional ifodalaligi talabalarning kognitiv faoliyati hamda ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik omillardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari onlayn ta'lim jarayonida o'qituvchi nutqining akustik va emotsional xususiyatlari talabalarning bilim olish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, ovozning ohangdorligi, intonatsion xilma-xilligi va nutq tempining me'yoriy darajada bo'lishi talabalarning diqqatini uzoq vaqt davomida saqlash hamda o'quv materiallarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Bu holat pedagogik kommunikatsiya samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining nutqiy mahoratiga bog'liqligini ko'rsatadi [9]. Olingan natijalar Muminovning o'qituvchi nutqining kommunikativ imkoniyatlariga oid ilmiy qarashlari bilan uyg'unlik kasb etadi. Muallif pedagog nutqining aniqligi, ravonligi va ifodalaliligi ta'lim oluvchilar bilan samarali muloqotni ta'minlashini ta'kidlaydi [11]. Onlayn ta'lim sharoitida vizual aloqa imkoniyatlarining cheklanganligi sababli aynan ovoz va nutq ta'siri yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, olingan natijalar Vygotskiyning nutq va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi nazariy qarashlarini ham tasdiqlaydi [13]. O'quv materialining aniq, tushunarli va ifodali tarzda bayon etilishi talabalarning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish hamda xulosa chiqarish ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'qituvchi nutqining sifati talabalarning kognitiv rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida qaralishi mumkin. Bundan tashqari, Mayerning multimedia ta'lim nazariyasiga ko'ra, axborotni eshitish orqali qabul qilish jarayonida ovoz sifati va nutqning tashkil etilishi muhim rol o'ynaydi [14]. Tadqiqot davomida ham intonatsiyaning o'rinli qo'llanilishi hamda nutq tempining me'yoriy bo'lishi talabalar tomonidan axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonini yengilashtirilishi kuzatildi. Bu esa onlayn darslarni rejalashtirishda pedagoglarning nutq texnikasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari va mavjud ilmiy manbalar tahlili onlayn ta'limda o'qituvchi ovozining ohangdorligi, emotsional ifodaliligi va intonation boyligi talabalarning fikrlash faolligi va o'quv motivasiyasini oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Shu bois pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida nutq texnikasi hamda ovoz bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Mazkur tadqiqot doirasida tahlil qilingan ilmiy manbalar onlayn ta'lim

jarayonida o'qituvchi ovozing ohangdorligi, intonatsiyasi, nutq tempi hamda emotsional ifodaliligi ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatadi. O'qituvchining ravon, aniq va ifodali nutqi talabalarning diqqatini barqaror saqlash, o'quv motivatsiyasini kuchaytirish, shuningdek, mantiqiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Adabiyotlar tahlili natijalariga ko'ra, intonatsion boylik, nutqning me'yoriy tempi va ovozning emotsional ta'sirchanligi o'quv materialini samarali o'zlashtirish hamda axborotni qabul qilish jarayonini yengillashtiruvchi muhim pedagogic omillar hisoblaniladi. Aksincha, monoton ohang, nutq tempining me'yordan chetga chiqishi va emotsional ifodalilikning yetarli darajada bo'lmasligi talabalarning diqqatini susaytirishi hamda o'quv jarayoni samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu munosabat bilan oliy ta'lim muassasalarida pedagoglarni kasbiy tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarida nutq texnikasi, ovozdan samarali foydalanish, intonatsiyani boshqarish hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Kelgusida ushbu yo'nalishda turli fanlar, ta'lim bosqichlari va raqamli platformalar misolida empiric tadqiqotlar o'tkazilishi onlayn ta'lim metodikasini yanada takomillashtirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO. Education: From COVID – 19 School Closures to Recovery. Available at.
2. Lawson, A.P., Mayer, R.E. The Power of Voice to Convey Emotion in Multimedia Instructional Messages. International Journal of Artificial Intelligence in Education, 2022.
3. Paulmann, S. va boshqalar. Instructor Enthusiasm in Online Lectures: How Vocal Enthusiasm Impacts Student Engagement, Learning, and Memory. Frontiers in Education, 2024.
4. Shoukat, S., Siyab, M., Sardar, R. Effect of Teacher's Vocal Tone and Pitch on Student Engagement and Comprehension: A Phonetic Analysis. 2025.
5. Hasby, N. va boshqalar. Teacher Speech Style and Student Engagement in ELT: A Systematic Review. 2025.
6. N.Q. Olimova. Nutq madaniyatini shakllantirishda o'qituvchi nutqining roli. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 2025. Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnali.
7. S. To'ra qizi Norqulova, Sh. Primqulova. O'qituvchining nutq madaniyati va nutq texnikasi. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI, 2025.

8. Sh.A. Berdiyeva. O'qituvchi faoliyatida pedagogik texnika. Nutq texnikasi va madaniyati. AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 2025.
9. Mahmudov N. O'qituvchining nutq madaniyati. – Toshkent, 2007.
10. Saidov J. Pedagogning nutq madaniyati // Maktabgacha ta'lim jurnali. – 2023
11. Muminova N.A. Speech Culture and Communicative Etiquette of a Teacher. – 2025.
12. Boltaboyeva U., Hotamova Y. Nutq madaniyatining ilmiy asoslari va o'qituvchi faoliyatidagi o'rni. – 2026.
13. Lev Vygotsky. Thought and Language. – 1934.
14. Richard E. Mayer. Multimedia Learning. – 2021
15. Nizomiddin Mahmudov. O'qituvchi nutq madaniyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
16. Qudrat Yo'ldoshev. Pedagogik mahorat – Toshkent - 2015